



Jizzax davlat  
Pedagogika  
universiteti  
TARIX FAKULTETI



# TARIX JAM'YAT

## JOURNAL 2023

№5



HISTORY AND SOCIETY  
ИСТОРИЯ И ОБЩЕСТВО  
общественный электронный  
ЖУРНАЛ



## TARIX VA JAMIYAT ILMIY ELEKTRON JURNAL

**2023-yil 5-son      Ijtimoiy-gumanitar fanlar  
Tarix, falsafa, huquq, sotsiologiya, o‘qitish metodikasi**

**Bosh muharrir:**      **Pardayev A.H. JDPU, tarix fakulteti dekani,  
t.f.n., dotsent.**

**Bosh muharrir**      **Aqchayev F.Sh. JDPU, t.f.b.f.d. (PhD), dotsent.**  
**o‘rinbosari:**

**Mas’ul kotib:**      **Saidov J.O. JDPU, Tarix fakulteti o‘qituvchisi**

### TAHRIRIYAT A’ZOLARI:

1. Sagdullayev A.S. – tarix fanlari doktori, Akademik
2. Ahmedshina F.A. – tarix fanlari doktori, professor
3. Shodmonova S.B. – tarix fanlari doktori, professor
4. Ochilova B.M. – falsafa fanlari doktori, professor
5. Choriyev S. – falsafa fanlari doktori, professor
6. Tulenova G. J. – falsafa fanlari doktori, professor
7. Pardayev M.H. – tarix fanlari doktori, dotsent
8. G‘oyibov B.S. – tarix fanlari doktori (DSc), dotsent
9. Yarmatov R.B. – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
10. Saidqosimov A.I. – f.f.b. fan doktori (DSc), dotsent
11. Amanullayev A. – f.f.b. fan doktori (PhD), dotsent
12. Toshboyev F.E. – tarix fanlari bo‘yicha fan doktori (PhD), dotsent
13. Mirkomilov B. – tarix fanlari nomzodi, dotsent
14. Saidov M. – falsafa fanlari nomzodi, dotsent
15. G‘ofurov J.I – tarix fanlari bo‘yicha fan doktori (PhD), dotsent
16. Hoshimxonov M.X. – f.f.b. fan doktori (DSc), dotsent
17. Valiyev A.X. – katta o‘qituvchi
18. Majidov A.S. – katta o‘qituvchi

**Dizayner va sahifalovchi:**

**Axmurodov D.Q**

# O'ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXI FANINI O'QITISHNING NAZARIY MASALALARI

**Ilmiy rahbar: Nabihev Mansur Jamxur o'g'li**  
Jizzax Davlat pedagogika universiteti  
katta o'qituvchisi

**Qobulov Bobur Usanbek o'g'li**  
Jizzax Davlat pedagogika universiteti talabasi  
[mansur.nabivev@bk.ru](mailto:mansur.nabivev@bk.ru)

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada tarix fanini fanlar tizimidagi o'rni, tarix fanlarini insonlar tarixiy dunyoqarashini rivojlantirishdagi ahamiyati, O'zbekiston eng yangi tarixi fanini oliv o'quv yurtlarida o'qitish, o'qitishdan ko'zlangan asosiy maqsadlar, O'zbekistonni eng yangi tarixi fanini o'qigan talabalarda yurtimizda amalha oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy sohalardagi islohotlarni mazmun mohiyatini bilib olishlari bilan bog'liq jarayonlar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** Tarix, fan, fanlar, O'zbekiston, eng yangi tarix, islohotlar, oliv o'quv yurti, maqsad, o'qitish, mohiyat, bayon.

**Аннотация:** В данной статье роль истории в системе наук, значение истории в развитии исторического мировоззрения народа, основные цели преподавания новейшей истории Узбекистана в высших учебных заведениях, новейшая история Узбекистана Процессы, связанные с описываются студенты, изучающие сущность реформ в социальной и политической сферах, проводимых в нашей стране.

**Ключевые слова:** История, наука, науки, Узбекистан, новейшая история, реформы, вуз, цель, преподавание, сущность, постановка.

**Annotation:** In this article, the role of history in the system of sciences, the importance of history in the development of people's historical outlook, the main goals of teaching the modern history of Uzbekistan in higher educational institutions, the modern history of Uzbekistan the processes related to students learning the essence of the reforms in the social and political spheres implemented in our country are described.

**Key words:** History, science, sciences, Uzbekistan, the latest history, reforms, higher education institution, purpose, teaching, essence, statement.

Tarix insonlar bugungi va kelajak hayoti haqida mushoxada qilishga undaydigan buyuk ustoz. Tarix va tarixiy bilmlarni egalagan insonlar o'tmishda ajdodlari bosib o'tgan hayot yo'llari, erishgan yutuqlari, mag'lubiyatga sabab bo'lgan tarixiy xatolaridan bugungi va kelajak hayoti uchun xulosa qilishga undaydi.

Tarix fani o‘tmishda bo‘lib o‘tgan jarayonlarni o‘rganishni ma’lum bir davrlarga bo‘lib o‘rganishi hammaga ma’lum. Biz o‘rganmoqchi bo‘lgan mana shunday davrlardan biri O‘zbekiston tarixida, O‘zbekistonning eng yangi tarixi davridir. O‘zbekistonning eng yangi tarixi davri ramziy ma’noda 2017 yilda yurtimizda bo‘lib o‘tgan siyosiy yangilanishlar, o‘zgarishlar bilan boshlanib hozirgi kungacha O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar bilan bog‘liq jarayonlarni o‘rganishni bilib olishimiz muhim. O‘zbekistonni eng yangi tarixi davrini 07.02.2017 yildagi PF-4947-son bilan qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida farmoni muhim ahamiyatga ega. 2017-2021 yillar davomida 1. Davlat va jamiyat qurilishini. 2. Qonun ustuvorligini ta’minalash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish. 3. Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish. 4. Ijtimoiy sohani rivojlantirish. 5. Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minalash, chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish[1,1]. Ushbu besh yo‘nalish bo‘yicha davlatimizda demokratik islohotlar amalga oshirildi va bu islohotlarning mantiqiqy davomi sifatida, 28.01.2022 yilda e’lon qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida PF-60-son farmoni muhim ahamiyatga ega. yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi o‘z ichiga 100 ta maqsadni qo‘ydi. Bu maqsadlarni amalga oshirish quydagi yettida ijtimoiy-siyosiy g‘oyalar asosida olib boradi. 1. Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada Rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish. 2. Mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish. 3. Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘sish sur’atlarini ta’minalash. 4. Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish. 5. Ma’naviy taraqqiyotni ta’minalash va sohani yangi bosqichga olib chiqish. 6. Milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish. 7. Mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish [2,14]. Ushbu qonun hujjalarda belgilangan maqsad va vazifalarni oliy o‘quv yurtida ta’lim olayotgan talabalarga yetkazish, tushuntirish ishlarini O‘zbekistonning eng yangi tarixi fani amalaga oshiradi.

Insonlarda tarixiy bilm, tarixiy tafakkurni rivojlantirishga hissa qo‘shadigan tarixiy manbalar, tarixiy qo‘lyozma asarlar, arxeologik topilmalar, madaniy obidalarni o‘rganish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Bugungi kunda dunyoda sodir bo‘layotgan geosiyosiy kurashlarda tarixiy bilmsizlikning jamiyat uchun salbiy oqibatlari juddayam og‘riqli. Tarixiy jarayonlarda ajdodlari tomonidan yo‘l qo‘ygan qo‘pol xatolarni anglangslik yoki

bilmaslik, umuman tarixiy bilimsizlik oqibatida bugungi hayotimizda ham ijtimoiy-siyosiy masalalar yuzasidan, xato qarorlar qabul qilish kelajak avlod oldidagi eng katta kechirlmas xato ish.

O‘zbekistonning eng yangi tarixi fani o‘rgatishda dunyoning rivojlangan davlatlarininmg ta’lim tizimidagi tajribasini o‘rganib amaliyatga jory etish samarali natijaga erishishmizga sababa bo‘ladi

Hozirgi kunga kelib ijtimoiy tarmoqlar, media sohasi ancha rivojlandi. Media sohasining yutuqlarini hisobga olgan holda eng yangi O‘zbekiston tarixi fanining har bir mavzusi bo‘yicha xujjal filmlar, vido darslarni yaratib butun jamoatchilikga taqdim etish kerak. Media sohasi bo‘yicha qilingan ishlar orqali O‘zbekistonning eng yangi tarixi faniga bo‘lgan qiziqishlarini yanada oshirishimiz mumkin.

Oliy o‘quv yurtlarda o‘tilayotgan O‘zbekistonning eng yangi tarixi fanining mavzular mohiyatini ochib berishga hizmat qiladigan manbalarni statistik tahlili ma’lumotlarni tizimlashtirib chiqish kerak. Bundan tashqari davlatimiz tomonidan qabul qilinayotgan qonun xujatlarni mazmun mohiyati haqidagi yangiliklarni o‘quv fan dasturlarini yangilab kiritib borish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

O‘zbekistonning eng yangi tarixi fanini o‘qitish orqali biz nimalarga erishishimiz mumkin degan savolni qo‘yib unga quydagicha javob berishimiz mumkin. O‘zbekistonning eng yangi tarixi fanini o‘qitish orqali biz bugungi kunda yurtimizda amalaga oshirilayotgan islohotlardan xabardor bo‘lish; islohotlarning mazmun mohiyatini to‘liq anglash; tarixiy, ijtimoiy-siyosiy, huquqiy bilm ko‘nikma va malakasini oshirish; davlat islohotlariga daxldor bo‘lish; dunyoda bo‘layotgan geosiyosiy jarayonlarni tahlil qila olish; kasbiy ko‘nikma va malakasini oshirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

## ADABIYOTLAR

1. 07.02.2017 yildagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, PF-4947-son farmoni O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida <https://lex.uz/docs/-3107036>
2. 28.01.2022 yildagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-son farmoni 2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida <https://lex.uz/uz/docs/-5841063#-5842914>.
3. Nabihev, M. (2022). СОЦИАЛЬНОЕ И ДУХОВНОЕ ЗНАЧЕНИЕ ТЕАТРАЛЬНОГО ИСКУССТВА В КУЛЬТУРНОМ РАЗВИТИИ ЧЕЛОВЕЧЕСТВА. Журнал истории и общества, 1(3), 13-19. извлечено от <https://history.jdpu.uz/index.php/history/article/view/5736>
4. Nabihev, M. (2020). “YUKSAK MA’NAVIYAT-YENGILMAS KUCH” ASARINING VUJUDGA KELISH SHART-SHAROITLARI VA IJTIMOIY ZARURATI. Архив Научных Публикаций JSPI.

5. Набиев, М. (2021). GLOBALLASHUV SHAROITIDA IJTIMOIY-MA'NAVIY QADRIYATLARGA ASOSLANGAN MAFKURAVIY TARBIYANING AHAMIYATI. Научно-просветительский журнал "Наставник", (2).
6. Nabiiev, M. (2021). YUksak MA'NAVIYAT – YENGILMAS KUCH" ASARIDA OMMAVIY MADANIYAT VA MA'NAVIY TAHDIDLARDAN YOSHLARNI HIMoya QILISHNING MEXANIZMLARI T AHLILI. Scienceweb Ilmiy Nashrlar Portali.
7. Mansur Nabiiev, Raxmankulov Sardor, ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕИ В РАЗУМЕ И СЕРДЦЕ МОЛОДЕЖИ, Журнал истории и общества: № 1 (2021): ЖУРНАЛ ИСТОРИЯ И ОБЩЕСТВО 2021, №1, ОКТЯБРЬ
8. Mansur Nabiiev, РОЛЬ НАРОДОВ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ В РАЗВИТИИ МИРОВЫХ ЦИВИЛИЗАЦИЙ, Журнал истории и общества: Том 1 № 3 (2022): ЖУРНАЛ ИСТОРИЯ И ОБЩЕСТВО 2022, № 3, АПРЕЛЬ